

**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING LIRIK QO'SHIQ VA
MAQOLLARNING O'RGANISHDAGI AHAMIYATI**

*Toshkent Kimyo xalqaro unversiteti
Samarqand filiali Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-kurs talabasi **Qayumova Sojida**
Tashkent International University of Kimyo
Samarqand branch Primary education
1 st year student **Kayumova Sojida***

Annatsiya. Ushbu maqolada qo'shiq va ma'qollarga qo'yiladigan talablar: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga vatanga muhabbat, sadoqat, vatanga munosib inson qilib tarbiyalash, nutqi va ongini o'stirish har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash. Ilmiy falsafiy pedago, psixologik tomoyilini belgilash.

Kalit so'zi: Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ijodidag qo'shiq va ma'qollarning milliyliigi.

Abstract. The requirements for songs and proverbs in this article: to educate elementary school students to love the country, to be loyal, to be worthy of the country, to develop their speech and mind, to raise them to be a well-rounded generation in all respects, defining the psychological principle.

Key world: Nationality of songs and proverbs in the work of primary school students.

KIRISH

Lirik qo'shiq. Dunyoda bironta xalq yuqki, turli munosabatlar bilan ommabiy bayramlarni nishonlamasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Qo'shiqlar paydo bo'lishiga bosh sabab inson kayfiyatiga chuqur istirob yoki to'satdan paydo bo'lgan ko'tarinki ruhdur. Lirik qo'shiqlarning asosiy bazifasi muhabbat tuyg'ularini ifodalash bilan belgilanadi. Binobarin lirik qo'shiqlar mohiyati ichki kechinmalari, ishq-muhabbat dardiga yo'liqishda mamnunlik kayfiyati ustivoridir.

Inson qadimda atrof muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiradi. Bu munosabat avvalo turli hatti harakatlar, obrazlar, ehtiroslar, vositasida amalga oshgan. Bizning halqimiz ananaviy tarixga ega. Halq og'zaki ijodidagi har bir lirik qo'shiq qachonlardir dil so'zlari orqali bildirmoqchi bo'lgan yigit-qizlarning qalb daftariga muhirlangan misralar. Bugungi kungacha bizga etib kelgan halq qo'shiqlari insonni allalaydi, tetiklantiradi, ulg'aytiradi. Maqolada yoshlarga halq qo'shiq va musiqa an'analari va ular haqidagi to'laqonli tasavvur, bilim malakalar berish asosida kelajak avlod ma'naviyatini shakllantirish va ongini o'stirish, yosh avlodni milliy an'alarimiz ruhida tarbiyalash.

Xalq og'zak ijodidagi har bir lirik qo'shiq qachonlardir dil so'zlari orqali bildirmoqchi bo'lgan yigit –qizlarning qalb daftaridaga muxirlanga misralar. Qo'shiq so'ziga ajablanish kerak emas, chunki qadimgi Yunonlar nazarda tutgan qo'shiq so'zning hozirgi paytda tushunilishidan farqli ravishda voqea hodisani bayon qilish xususiyatiga ega. Xalq og'zaki ijodi bunday jinsga mansub janrlar, afsonalar, naql, rivoyat, ertak doston, termalar, latifa va loflardan iborat. Lirik qo'shiqlar asrlar davomida xalq og'zaki ijodida qalb isxorlarini asosiy janri sifatida yashab kelgan so'z durdonalaridan biri. Lirik qo'shiqlar avvalo takidlash lozimki xalq qo'shiqlari mavzuyida misol qilib keltirilgan. To'rtlik shaklidagi she'r asarlar hammasi badiy adabiyotning lirik jinsiga mahsub. Mavsum, marosim qo'shiqlari ba'zan ommaviy tarzda ijro etishga mo'ljallangan bo'lishi bilan birga maxsus tayyorgarlik ko'rgan mahoratli ijrochilar ijodini inkor qilmaydi. Mahmud Qoshg'ariyning to'plangan afsona va qo'shiqlari bizgacha etib kelgan eng qadimgi davrdagi namunalar, Devonu Lug'ati aturk asarida qo'shiqlar, mavsumiy qo'shiqlar, chorvachilik, qahromonlik qo'shiqlari bizgacha etib kelgan. Xalq qo'shiqlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qo'shiqlar mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib qolganini guvohi bo'lamiz. SHuning uchun qo'shiqlar qadimiy tassavvur izlari bilan bir qatorda, O'rta asrlarda hamda kuni kecha yohud bugun yuz berayotgan voqealar, kechinmalar o'z ifodasini topadi.

Bunday qo'shiqlarga insonlarning ruhiy olami, ishqiy kechinmalari aks etgan, ular asosan to'rt misralik bandlardan tashkil topib, kasb payt o'rin tanlamaydi. Lirik qo'shiqlar halq qo'shiqlari orasida juda qadimiyligi soni ko'pligi va badiy saviyasining yuksakligi bilan ajralib turadi. Qo'shiqlar musiqa merosimizda muhim o'rin tutib kelgan. Faqat to'yda va azadagina emas, balki hayotning har sohasida qo'shiq insonga ruhiy madat, hamdart va hamroh bo'lib kelgan. Qo'shiqlar xalq an'analari, urf-odatlarini bilan chambarchas bog'lanib keladi va ularga fayz kiritadi. Yosh avlodga milliy rux bag'ishlaydigan bunday ulkan ma'naviy me'rosimizning solmoqli bir bo'lagini tashkil etuvchi halq qo'shiqchiligini ham o'ziga hos an'analari mehnat qo'shiqlari, mavsum- marosim va urf – odat qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar va termalar bu janrlarga mansub qo'shiqlar halq milliy ohanglari asosida milliylikni yo'qotmasdan bizgacha etib kelgan. Halq o'zining nozik va murakkab tuyg'ularini kechinmalarini qo'shiqqa aylantirgan. Qo'shiqlar halq tomonidan va real ijodkorlar, shoir va bastakorlar tomonidan ijro qilingan. Bir tomondan halq qo'shiqlarining o'sha olis davrlarda ham rang-barangligi bo'lganligini, tarixiy ildizlarida juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan ularni tansiflashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqollar halq og'zaki ijodining bebaho boyligi sanaladi.

Maqollar. Xalq maqollarining badiy jihatdan mukammalligi taniqli olim va yozuvchilar tomonidan tan olingan. Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va

xilma-xil, mehnat, ilm hunar, do'stlik, donolik, xushyorlik til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda maqollar bizga ham etib kelgan. Haqiqiy maqollarning shakillanishi uzoq davrni qamraydi, ammo badiiy mukammal va hayot tajribasi aks etgan maqolning umri boqiy bo'ladi. Maqollar xalq og'zaki ijodida bebaho boylik sanaladi, o'zining qisqa shakli va chuqur ma'nosiga ega Maqollar mavzu jihatdan juda boy va xilma-xil. Mehnat, ilm hunar, do'stkik, ahillik, donolik, tili va nutq madaniyati manolilik majoziylik ma'nolariga ega.

Xalq maqollar o'z va ko'chma ma'noga ega. Xalq ma'qollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so'z san'atining oliy namunasi sifstida baholashga loyiq. Hajim jihatdan kichikligi, mazmunan serma'noligi, mavzu jihatdan hayotiyliigi maqollar asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Maqollardaso'z qimmat alohida yorqin almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin. Chunki maqollardagi so'zlarniboshqasi bilan Mazkur maqolda inson ruhiy olamidaVatan tushunchasining ahamiyati katta. Maqoldagi Vatan so'zida faqat muayyan hudud, manzil o'rin – joy, tabiat aks etgan, desak yanglishgan bo'kamiz. Bu so'z mano jihatdan ajdodlar ruhi, manaviy meros obidalar, qadriyatlar, millat birligi mentalitet xususiyatlari bilan uyg'unlashadi.

So'z san'atining mahsuli sifatida maqol ham mahsuli sifatida o'z ma'nosida, ko'chma ma'noda va har ikkala ma'noda qo'llanishi mumkin shuning uchun ular badiiy tasviriy vositalarni xilma-xil shakillariga duch kelamiz. Ammo maqollarda o'xshatishning kam ishlatilishi uning bu janr uchunharakterli emasligini ko'ramiz. Til falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos xodisasi sifstida yuzaga kelgan halq maqollari fal'klorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan janrdir. Maqol atamasi arabcha (qovlun)gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan, u aytib yuriladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini hosil qiladi. Maqol har-bir halqning og'zaki ijodida uchraydigan janrdir. Ijtimoiy hayotning hamma sohasi xalq maqollarida aks etgan. Maqol xalq og'zaki ijodning bashqa janridan ajralib turadi, masalan, doston, ertak, afsona va rivoyatlar, latifalar vaqelikni hikaya tarzda aks ettirsa, maqollar halqning ana shu boqelik haqida xulosalar, hukmlari orqali ifodalaydi.

Xalq ozaki ijodi janri, qisqa va lo'nda, obrazli, Grammatik va mantiqiy tugal ma'noni hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Ularda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruxiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va soda poetic shaklga kelgan.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Qoshg'ariyning Devonu lug'atit-turk asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalq orasida turli variantlarda ishlatiladi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushning toshlarga qoldirilgan izlari singari ishonchli metaforik

tarzda yashiringan. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o'zining obrazli qudrati bilan ming yillar mobaynida saqlanib kelaveradi.

ADABIYOTLAR

- 1) Imomov K, mirzaev T, Sarimsaqov B, Safarov O, O'zbek Xalq og'zaki Ijodi,-T, O'qituvchi, 1990-B 91-99.
- 2) Imomov K Mirzaev, - T, Sarimsaqov B, Safarov, 1990–B 142-169.
- 3) Mahmud Qashg'ariy Devonu - lug'ati -turk, irinch jildi – Toshkent www. Ziyoz. Com kutubxonasi.
- 4) Sarimsoqov B, Maqollar, /O'zbek folklori ocherklari 1–Jild–T: Fan, 1988-yil, 85-98.
- 5) O'zbek xalq maqollari–T: Fan 1978-yil.
- 6) Shomaqsudov SH, Shorahmedov Sh, Hikmatnoma. - T, 1990-yil, B 44.
- 7) Safarov O, Xalq janriga mehr/Folklor–be'baho xazina,-T: Muharrir, 2010-yil, B 285–298.
- 8) Lutfiy, G'azallari/O'zbek adabiyoti, 4 jildlik,1–jild, - T: 1959-yil, B-441.
- 9) Normuratov, A. (2022). PROBLEMS AND PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN MODERN SOCIETY. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 465-468.
- 10) Normuratov, A. (2022). Ma'muriy yustitsiya tushunchasi va uning jamiyatdagi ahamiyati. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3(11/S), 214–218. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp214-218>